



BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Alijonova M.R.

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
"O'zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat"
kafedrasi mudiri p.f.f.d. (PhD)*

Tayanch so'zlar: tasvirlash, kreativ shaxs tavsifi, shaxsiy hayotda ijodkorlik.

Ключевые слова: образность, творческая характеристика личности, творчество в личной жизни.

Key words: description, description of creativity, creativity and creativity.

Oliy ta'lim jarayonlarini zamonaviy rivojlanishlar bilan muvofiqlashtirishda va takomillashtirishda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionalligi, kompetentli bo'lishi alohida e'tirof etiladi. Chunki malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi zamonaviy talablar bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion va integratsion ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassis shaxsiga va ularning faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta'lim mazmunini izchil rivojlantirib borish bilan bir qatorda, bo'lajak mutaxassislarga belgilangan malakaviy talablarni ham shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq izchil takomillashtirib borish zarurati mavjud.

Shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda hodimning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.



So`nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta`lim tizimida o`quvchi va Bo`lajak hodimlarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e`tibor qaratilmoqda.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma`nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg`ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o`tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o`zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o`zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta`sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o`ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va ika lug`atlariga asoslanib o`qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta`riflash mumkin. O`qituvchining kreativligi, bu uning qat`iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g`oyalarni izlab topish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o`zaro bir-biriga bog`liq kreativlikni 9 ta tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o`z-o`zini boshqarish);
3. Motevatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli). Kreativ layoqat quyudagi o`zaro bir-biriga bog`liq bo`lgan qismlardan iborat bo`ladi:
5. Kreativlik maqsad;
6. Ijodiy intilish;
7. Kreativ (ustanovka) qurish;
8. Kreativ yo`nalish;
9. Kreativ ifodali akt.

O`qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo`ladi va rivojlanadi. K.Rodgers “Ijod-o`z o`zini kuchaytirish demakdir” degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: “Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to`g`ri talqin etadimi. O`qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho`qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o`zini ijodiy tomondan to`la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo`lishi”. Shunday qilib kreativlik o`qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo`nalishi va o`zini boshqara olishida ko`rinadi va uni o`zini faolligi, o`zini-o`zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o`sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. ning kreativlik potentsiali uning

umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy 10 qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. ning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: - tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; - yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; - bir qolipda fikrlamaslik; - o'ziga xoslik; - tashabbuskorlik; - noaniqlikka toqat qilish; kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: - kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; - yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; - ilg'or ik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; - hamkasblar bilan ilk yutuqlar xususida fikr almashish. Har bir ning o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatdalarining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari ik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak larning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda ning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ikki xarakterdagi ijod 11 mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilarkan, ning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Umuman olganda, tadqiqotchilar kundalik ijodkorlik amaliyot va ta'lim orqali takomillashtirilishi mumkin degan xulosada yakdildir. Demak, tug'ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo'lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko'proq urg'u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog'liq vazifalarga asosiy e'tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish



kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta'lim kontekstiga, balki g'oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo'lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Toshkent “O’zbekiston”, 2017, 104 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent “O’zbekiston”, 2016, 56 b.
3. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston”, 2017, 488b 3.Жуманова С.Б. Креатив фикрлаш. — «Издательские решения», 2020. ISBN 978-5-00-511636-9.
4. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение/Том Чатфилд ; Пер. с англ. — М.: Альпина Паблшер, 2019. - 328 с.
5. I.S. Xotamov, M.K. Olimov, G.R. Madraximova, I.S. Foziljonov. Kreativ fikrlash. O’quv qo’llanma. (Kredit-modul bo’yicha). “Innovatsion rivojlanish nashriyat-manba uyi”. Toshkent-2021
6. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya.- “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, darslik. Toshkent, 2008 y.- 480 b.
7. F.R. Abdurahmonov, Z.E. Abdurahmonova. Kasb psixologiyasi. – “Barkamol fayz mediya” nashriyoti, darslik. Toshkent, - 2002. 200 b.
8. V.Karimova. Psixologiya: O’quv qo’llanma -T. 2002. 207 b.
9. Z.Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiev. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. “Tafakkur bo’stoni” nashriyoti, o’quv qo’llanma. Toshkent, 2008 y.- 340 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarda ish jarayoni va hayot faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan muammolarni bartaraf yetish uchun kreativ yechimlarni topish va strategiyalarni ishlabchiqish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Turli vaziyatlarda anglab yetishi talab qilinadigan shaxsiy fikrlash qobiliyatini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini baxolash va fikrlash jarayonlarini o’rganish usullari kabi jihatlar haqida maxsus dasturlar ishlab chiqishning zarurati, uning tarkibiy qismlari bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar taqdim qilingan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья направлена на развитие у учащихся умений находить творческие решения и разрабатывать стратегии преодоления проблем, способные оказать положительное влияние на рабочий процесс и жизнедеятельность. Были представлены необходимость разработки специальных программ, предложения и рекомендации по ее компонентам, а также выводы по таким аспектам, как повышение способности личного мышления, оценка навыков творческого и критического мышления, а также методы обучения мыслительным процессам, которые необходимо понимать в различных ситуациях.

SUMMARY

This article is aimed at developing students’ skills to find creative solutions and develop strategies for overcoming problems that can have a positive impact on the work process and life activities. The need for the development of special programs, suggestions and recommendations for its components, as well as conclusions on such aspects as increasing personal thinking ability, assessing creative and critical thinking skills, and methods for teaching thought processes that need to be understood in various situations were presented.